



ISSN 2181-1571



FERGANA STATE  
UNIVERSITY

**FarDU.  
ILMIY XABARLAR**

---

**IJTIMOIY GUMANITAR  
FANLAR**

---

**Scientific journal  
of the  
Fergana State  
University**



**1/2024**

<b>B.S.Turdiyev</b>	
O'rta asr mutafakkirlarining jamiyat ideosferasi yangilanishi to'g'risidagi falsafiy qarashlar tahlili .....	182
<b>B.E.Xusanov</b>	
Tarbiya klasterlarining estetik tamoyillari .....	187
<b>F.M.O'sarov</b>	
Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va unda jamoat xavfsizligini ta'minlash mezonlari.....	190
<b>F.F.Dadaboyev</b>	
Yangi O'zbekistonda tadbirdorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari .....	193
<b>Sh.Sh.Dadaxanov</b>	
O'zbekistonda ichki ishlar idoralari faoliyatida xalq manfaatlari tamoyilini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari .....	201

## SIYOSAT

<b>J.Q.Yusubov</b>	
Davlat xizmatida yetuk kadrlarni shakllanishi – mamlakat taraqqiyotining asosi .....	206
<b>B.Yalgashev</b>	
"Siyosiy falsafa" va "Siyosat falsafasi" o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari .....	210
<b>A.Xamdamov</b>	
Fuqarolik jamiyati bilan bog'liq zamonaviy konsepsiyalarning mohiyati .....	214
<b>B.A.Usmonov</b>	
Amir Temurning Xitoy yurishiga oid ba'zi mulohazalar .....	219
<b>A.Н.Адыгезалов</b>	
Сотрудничество Узбекистана и Азербайджана в рамках гуум .....	224
<b>F.X.Utayeva, M.A.Muxamedjonova</b>	
To'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni.....	231
<b>A.H.Boltayev</b>	
V.A.Shishkinning shaxsiy arxiviga bir nazar.....	235
<b>G'.R.Mirzayev</b>	
Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekistonning yaqin qo'shnichilik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorligi.....	239
<b>O.N.Nasirov</b>	
Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi .....	249
<b>O.I.Rajabov</b>	
Shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lgan ziyoratgohlar .....	253
<b>П.Х.Исмоилова</b>	
Деятельность отделения русско-азиатского банка в Туркестане в конце XIX в начале XX века .....	257
<b>H.S.Yusupov</b>	
Otaniyoz Xo'janiyoz o'g'li Niyoziyning mudarrislik faoliyati .....	262
<b>Sh.Y.Oxunjonova</b>	
Toshkent shahri bozorlarida savdo va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan aholining ijtimoiy tarkibi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1990-2024 yillardar) .....	265
<b>A.R.Nurmatov, D.X.Boydedayev</b>	
Imom al-Buxoriy- buyuk muhaddis olim .....	272
<b>П.Х.Исмоилова</b>	
Банковская деятельность в Ферганской долине: возникновение и ее предпосылки в XIX—XX веках .....	276
<b>G.X.Xasanboyeva</b>	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi sug'orish tizimi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1950-1970 yillardar).....	281
<b>X.P.Jurayev</b>	
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida yer egaligi tizimi va uning o'ziga xos jihatlari .....	285

**TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI****РОЛЬ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ****THE ROLE OF WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF TEXTILE INDUSTRY****Utayeva Feruza Xolmamatovna<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)**Muxamedjonova Marjona Azamatjon qizi<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Buxoro davlat universiteti, tarix yo'nalishi talabasi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O'zbekistonda yengil sanoatining tarmog'i bo'lgan to'qimachilik sanoatining rivojlanishi uchun mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'ldirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Mamlakat iqtisodini rivojlanishida Buxoro to'qimachilik sanoatining alohida o'mi mavjudligi va malakali mutaxassislarining, shu jumladan, to'qimachilik sohasida xotin-qizlarning muhim o'mi mavjudligi va ularni malakasini oshirish borasida O'zbekiston viloyatlarda tashkil etilgan to'qimachilik fabrikalarida tajriba orttirish masalalari bayon etilgan. Shu bilan birga Buxoroda yengil sanoat texnikumlarining va oily dargohlarning ochilishi tarixi haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются вопросы восполнения потребности в специалистах в кадрах для развития текстильной промышленности, которая является отраслью легкой промышленности Узбекистана. Наличие особой роли текстильной промышленности Бухары в развитии экономики страны и важная роль квалифицированных специалистов, в том числе женщин в текстильной промышленности, а также вопросы приобретения опыта на текстильных фабриках, созданных в регионах Узбекистана, относительно описана их квалификация, а также даны сведения об истории открытия техникумов легкой промышленности и семейных школ в Бухаре.

**Abstract**

This article focuses on the issues of filling the need for specialist personnel for the development of the textile industry, which is a branch of light industry in Uzbekistan. The existence of a special role of the Bukhara textile industry in the development of the country's economy and the important role of qualified specialists, including women in the textile industry, and the issues of gaining experience in the textile factories established in the regions of Uzbekistan regarding their qualification are described. At the same time, information about the history of the opening of light industry technical schools and family schools in Bukhara is given.

**Kalit so'zlar:** Buxoro, to'qimachilik, xotin-qizlar, ip-gazlama, hamkorlik, fabrika, loyiha, paxta, majburiyat, mutaxassis, ishlab chiqarish.

**Ключевые слова:** Бухара, текстиль, женщины, прядение, кооперация, фабрика, проект, хлопок, обязательство, специалист, производство.

**Key words:** Bukhara, textile, women, spinning, cooperation, factory, project, cotton, commitment, specialist, production.

**KIRISH**

Buxoroda to'qimachilik sanoatining tarixiy ildizlari tabiiyligi va pishiqligi bilan ajralib turgan "Zandanacha" matolariga borib taqaladi. Ota-bobolarimizning to'qimachilik sohasidagi ish uslublari va tajribalari Buxoroda to'qimachilik sanoati rivojiga turki bo'lgan. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning 70-80-yillarida O'zbekiston va Buxoroda tarixiy taraqqiyot jarayonida hunarmandchilik, tadbirkorlik va savdo-sotiq sohasida orttirilgan tajribalar yirik to'qimachilik sanoatining taraqqiyotiga olib kelgan. Viloyatlarda to'qimachilik fabrikalarining qurilishi va ishga tushirilishi mahalliy aholining ish bilan ta'minlanishiga va iqtisodiy salohiyatning ko'tarilishiga olib kelgan. To'qimachilik sohasida, albatta, xotin-qizlarning o'rni katta. Iplarni yigirishda va bo'yashda, so'ngra mato holiga keltirishda ularning mehnatining samarasi yuqori bo'lgan. To'qimachilik sanoatida ishchilar sonini yuz foiz deb olsak, shundan yetmis foizi xotin-qizlarni tashkil etadi. Asosan, yengil sanoat og'ir sanoatdan farqliroq bo'lib, to'qimachilik sanoati aholi yashash joyi ekologiyasiga zararli jihatlari bo'lmasligi sababli aholi istiqomat qiladigan hududlarda tashkil etilgan. Xotin-qizlarning ish bilan ta'minlanishida ham Buxoro to'qimachilik fabrikasining ahamiyati o'rnlidir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqolada O'zbekistonning to'qimachilik sanoati taraqqiyotida Buxoro to'qimachilik fabrikasining tashkil etilishi va xotin-qizlarni yengil sanoat sohasida tajribasini orttirish va ishchi kadrlar tayyorlash tarixi va o'rni haqidagi ma'lumotlar bir qator adabiyotlar va ilmiy ishlarni ilmiy hamda metodologik tahlil qilgan holda bayon etilgan. Tarixiy tadqiqotlar, jumladan, O.A.Suxaryevaning kitobida Buxoro hunarmandlari to'qimachilik taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan hududlardan biri ekanligi ko'rsatib o'tilgan bo'lsa, S.Soliyev, K.Qosimov, F.Isxakov, A.Azizzxonov, I.Raxmatov, A.Uralov va D.Babajanova dissertatsiyalarida ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda to'qimachilik sanoatining vatanimiz taraqqiyotidagi o'rni, Buxoro ip-gazlama kombinatasi faoliyatidagi ishlab chiqarishning iqtisodiyotdagi mavqeysi va to'qimachilik sanoati rivoji uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash va xotin - qizlarning o'rni kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Buxoro ip-gazlama kombinatida ishlab chiqarish faoliyati yuqori bo'lishi uchun salohiyatlari va yetuk ishchi xodimlarni tayyorlashga juda katta samarali ishlar qilingan. O'zbekiston Yengil sanoat Vazirligining 1971-yil 17-dekabr 514-raqamli buyrug'i asosida, 1972-yil 21-iyuldan ikki yilga Toshkent to'qimachilik kombinatiga 47 kishi o'qish va ishlab chiqarish amaliyotida qatnashib tajriba orttirish uchun yuborildi, mazkur buyruq asosida 1972-yil 17-fevralda 15 nafar yoshlar bir yilga 7-kasb-hunar bilim yurtida o'qib, Farg'ona viloyatidagi to'qimachilik kombinatida tajriba orttirish uchun yuborilgan.[1]

Farg'ona viloyatidagi 7-kasb-hunar bilim yurtida 1972-yil 18-iyuldan 25-dekabrgacha 11 nafar kishi amaliyot o'tash uchun Buxoro ip-gazlama kombinatiga kelgan. 1972-yil 20-iyulda bir yilga 110 kishi Farg'ona viloyatiga 7-kasb-hunar bilim yurtida o'qish uchun yuborilgan.

Buxoro ip-gazlama kombinatini qurilish ishlari shiddat bilan ketayotgan bir vaqtida malakali kadrlarni tayyorlash uchun 1972-yilda Buxoro shahrida kombinat negizida 100-sonli texnikum ochilgan. Texnikum o'quvchilaridan 11 kishi Toshkent to'qimachilik kombinatiga ish o'rganishga yuborilgan. Ularga 72 rubl (so'm) oylik to'langan. 1979-yilgi hisobotlarga ko'ra ta'lif muassasasi o'z faoliyati davomida 2370 tadan ortiq yosh malakali kadrlarni tayyorlab bergen, ular Buxoro ip-gazlama kombinatida o'z amaliyotlarini o'tab, texnikumni tamomlagach esa shu yerda ish faoliyatlarini davom ettirganlar.[2]

Kombinat direktori U.Umarbekov tomonidan 1973-yil 26-dekabrdan Namangan to'qimachilik kombinatiga bir yil muddatga o'quv mashg'ulotlarini tajribada qo'llash uchun 19 kishi yuborilgan, ularga har oy 45 so'm maosh to'langan.

Toshkent Politexnika institutining Buxoroda kechki umumtexnika fakulteti o'z faoliyatini 1959-yildan 1972-yilgacha davom ettirib, 1972-yildan boshlab Toshkent Politexnika institutining filialiga va 1978-yildan Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiya institutiga aylantirilgan. Institutda To'qimachilik va yengil sanoat fakulteti 1979-yilda tashkil etilgan bo'lib, o'quv jarayonlarini takomillashtirish uchun amaliyotlar tajribali ustozlar boshchiligidagi Buxoro ip-gazlama kombinatida amalga oshirilgan. 1979-yildan "To'quvchilik", "Yigiruv" mutaxassislari bo'yicha malakali kadrlar tayyorlangan bo'lsa, 1982-yildan boshlab "Tikuvchilik mahsulotlari texnologiyasi", "Yengil sanoat mashina va apparatlari" mutaxassislari bo'yicha to'qimachilik sanoatini turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun malakali kadrlar tayyorlashga kirishilgan. To'quvchilik sohalarini rivojlantirish uchun Moskva davlat dizayn va texnologiya universiteti va Ukraina institutlarida chop etilgan o'quv adabiyotlari va jurnallar bilan fakultet hamda kafedralarning fondi boyitilgan.[3]

To'qimachilik sohalarini bo'yicha mamlakatimizning ko'plab ishlab chiqarish korxonalari bilan aloqalar o'rnatilib, malakali kadrlar tayyorlab kelingan va hamkorlik shartnomalari tuzilgan. Jumladan: Toshkentdagi "Yulduz", "Qizil tong", "O'zbekiston", "Qunduz" Qarshidagi "Sanam", Samarqand shahridagi "8-mart", Urganchdagi "Tikuvchi", Olot, G'ijduvon, Vobkent tumanlaridagi to'qimachilik korxonalari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan va mutaxassislar tayyorlab bergenligi ahamiyatlari bo'ldi.

Kombinatda ishchi va muhandis-texnik xodimlarning ilmiy-texnikaviy bilimini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilgan. Faqat o'n birinchi besh yillikning to'rt yilida ilmiy-texnika jamiyati a'zolari soni 2,2 barobar oshgan. [4]

## TARIX

Birinchi yigiruv fabrikasi birinchi yigiruv sexi to'quvchisi R.Esanova, usta yordamchisi A.Teshayev, yigiruvchi R.Nazarova, to'quvchi I.Rahmatova va boshqa ko'plab ilg'or ishchilar ishdan ajralmagan holda o'qishni davom ettirganlar.

1979-yil davomida 5000 dan ortiq maktab o'quvchilari kombinat rabariyati tomonidan kombinat bilan tanishtirilgan. 1979-yil 15-25-may kunlari shahar maktablarining 1980 nafar o'quvchilari ota-onalari bilan birga kombinatga sayohat (ekskursiya)ga kelishgan. Ushbu yilning 11-maydan 9-iyuligacha bo'lgan yozgi ta'tilda kombinatda 600 kishilik katta yoshdag'i maktab o'quvchilari va talabalar guruhi kombinatda amaliyot o'taganlar.

Kadrlar tayyorlash borasida 1982-yilda 1003 xotin-qizlar maxsus kurslarda ishchilarning malakasini oshirish uchun amaliyotdan o'tkazilgan. 468 nafar yangi ishchilar individual usulda o'qitilgan. Sanoat-texnika kurslarida 1982-yilda 400 kishi o'z malakasini maxsus maqsadli kurslarda oshirdi. 1982-yil ishlab chiqarish bo'yicha ko'p sonli yigiruvchilar, to'quvchilar turli tanlovlarning g'oliblari bo'lisdidi. Maktab bitiruvchilaridan reja asosida 400 kishi ishga olindi. 1982-yil xotin-qizlardan 301 nafar yigiruvchi, 481 nafar to'quvchi, biriktirilgan usta(master)lar 73 kishi, 148 nafar kir yuvuvchi faoliyatları yo'lga qo'yilgan. [5]

Shuningdek, 180 nafar xotin-qizlarga urnak sifatida, to'qimachilik kombinatining yigiruvchisi korxonaning ilg'or ishchisi B.D.Istamova fidoyilik bilan mehnat qilgan. B.D.Istamova Buxoro ip-gazlama kombinati ishga tushirilgan dastlabki kunlarda ishga kirgan. Kasb-hunar bilim yurtini tamomlagach, mehnatsevarlik va to'qimachilik kasbiga mehr ko'rsatish xislatlarini jalb qilgan. Meyor bo'yicha ish vaqtidan oqilona foydalanish, ilg'or tajribalarni tezkorlik bilan qo'llash, xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, belgilangan rejani ortig'i bilan bajarish uchun kuch-qudratini ayamay, topshiriqni 130-140 foizga bajarib, faqat a'lo sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga erishgan.

1976-yil 14-mayda 19 yoshda ishga kirgan Salomova Roxila Salimovna to'qimachilik kombinatida 1976–2000-yillar oralig'ida Buxoro to'qimachilik kombinatida ishlagan. Buxoro ip-gazlama kombinati kadrlar bo'limi boshlig'i O.F.Kenjayevaga ishga kirish haqida ariza yozgan. Kombinat direktori A.I.Ismoilov ishchi qizlarning fabrikaga kerakligini ta'kidlagan.[6] Birinchi yigiruv to'quv fabrikasida ip yigiruvchi bo'lib ishga qabul qilingan. 1976-yildan 1979-yilgacha fabrikada ip yigiruvchi bo'lib ishlagan. 1979-yil Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyalar instituti "To'qimachilik va yengil sanoat" fakultetiga kombinat tomonidan bilimli va to'qimachilik sirlarini puxta egallagan xotin-qizlarni o'qishga yuborilgan. Salomova Roxila Salimovna ham imtihonlarni topshirib, 1979-yil To'qimachilik va yengil sanoat fakulteti talabasi bo'lgan. To'quvchilik va yigiruvchilik sohalari bo'yicha o'z kasbiy mahoratini kechki ta'lilda o'qib fabrikada ishlab, Buxoroning to'qimachilik sanoati salohiyatini oshirishda xizmat ko'rsatgan. 1985-yildan boshlab, birinchi yigiruv fabrikasida ma'lumoti va iqtidoriga qarab usta (master) darajasiga ko'tarilgan. [7]

1979-yil 10-iyun "Sanoat xodimlari kuni" bayramida R.Salomova, G.Po'latova, M.Rahmatova va B.Axmedovalar besh yillik rejani 115–120 foiz oldindan bajarganlari va mahsulot sifatiga e'tibor bergenligi uchun mukofotlangan. [8]

Martiya Ahmadova 1955-yil 8-martda Buxoro viloyatining Buxoro tumanidagi "Arabxona" qishlog'ida tug'ilgan. Mehnat faoliyatini 1973-yilda Buxoro to'qimachilik fabrikasida oddiy ip yigiruvchi sifatida ish boshlab, yillar mobaynida bu sohada yangiliklarga intilib bir vaqtning o'zida bir necha dastgohlarni chaqqonlik bilan boshqarib mehnat qilgan. Farg'onadagi 7-kasb-hunar bilim yurtida o'qib tajriba orttirgan. Bitta dastgohda 336 ta urchuq bo'lib bir urchuqda aylanayotgan ip uzilmasligi va mato sifatiga zarar yetmasligi kerakligini his qilib ishlashgan. Iplarning yo'g'ong'inchkaligiga qarab, satin, chit kabi turli gazlamalar to'qilgan va naqshlar bosilib, iste'molga chiqarilishida o'z hissalarini qo'shishgan.[9] Bu davlatimiz va kombinat rahbariyati tomonidan munosib baholangan. 1996-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan 1999-yilda "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlangan.

1986-yil 23-may O'zbekiston SSR Yengil sanoat vazirligining birlashma, korxona va tashkilot ishchilari, injener texnik xodimlarini "O'n birinchi besh yillik" topshiriqlarni bajarishdagi muvaffaqiyatlari uchun orden va medallar bilan mukofotlash to'g'risidagi farmoniga binoan "Hurmat belgisi" ordeni bilan mukofotlangan KPSS XXV syezdi nomidagi to'qimachilik kombinati xodimlari: Zaripova Zubayda Asadovna (to'qimachilik kombinati masteri), Ismatova Chinni Salimovna (o'rovchi), Safarova Gulhora Sharifovna (master), Temirova Zuhra Rajabovna (G'ijduvondagi

yigiruv-to'quv fabrikasi yigiruvchisi), Ergasheva Nodira Navro'zovna (to'quvchi), Jumayeva Halima Jo'rayevna (to'quvchi), Qo'ldoshev Qayim Shomurodovich (yigiruvchi), Soatova Robiya Xoziyevna (tarov mashinasi operatori) va bir qator to'quvchilar, kalava bo'yqlovchilari, master yordamchilari "Shavkatli mehnati uchun" medali bilan taqdirlanganlar. [10]

Jami filiallar bilan birgalikda kombinatda 1980-yillarda 12 ming 320 kishi mehnat qilgan, shundan 58 foizi ya'ni 7 mingi xotin-qizlarni, 2,5 mingi yoshlarni tashkil qilgan. Yoshlar o'qish bilan bir qatorda fabrikada mehnat qilishgan. Shundan 18 yoshgacha bo'lganlar 279 kishini (2,5 foiz), 30 yoshgacha 10 ming 749 kishi (90 foiz), 30 yoshdan kattalar 142 kishi (3,5 foiz)ni tashkil qilgan. Xodimlarning o'rtacha yoshi 23 yosh bo'lib, ko'p millat vakillari birgalikda mehnat qilgan. To'qimachilik kombinati o'quv muassasalarining amaliyot o'taydigan joyi hisoblanganligi bilan muhim o'rinni va mavqega ega bo'lsada kadrlar muammosini kun tartibiga qo'yilganini quyida keltirilgan misollardan bilish mumkin.[11] 1986-yildan 1989-yilgacha korxonadagi muhandis-teknik xodimlar soni 950 dan 962 kishiga, umumiy ishchilar soni 12250 dan 13500 kishiga ko'paygan. To'qimachilik sanoatida ishlaydiganlarning yetmish foizi xotin-qizlarni tashkil etgan.[12]

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, ko'p millatli buxoro xalqi to'qimachilik sanoati korxonasida ish tajribasini orttirdi, aholi ish bilan ta'minlangan. Kombinat homiyligida ko'pgina bilim yurtlari, maktablar, tibbiyot maskanlar va madaniy maskanlar tashkil etilgan. Kombinat ishchilari ish tajribasini orttirish uchun respublikaning turli viloyatlaridagi to'qimachilik fabrikalariga amaliyotga yuborilgan. Hattoki yozgi uch oylik ta'tilda talabalar, maktabning yuqori sinf o'quvchi qizlar fabrikada ishlab tajriba ortirish bilan birga ularga haq ham to'langan. Turli millat vakillari Buxoro to'qimachilik kombinatida ishladilar. Buxoro viloyatida to'qimachilik sanoatining tashkil etilishi natijasida ko'p joylar obodonlashtirildi, oliy dargohlar, texnikum va maxsus kurslar tashkil etilgan, va o'z mehnatlari bilan Buxoro to'qimachilik sanoatini salmog'ini oshirishga hissalarini qo'shganlar.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Абдурахмонов Қ. Илмий техник тараққиёт ва ишчи кадрлар тайёрлаш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. (Abdurakhmanov Q. Scientific and technical development and training of working personnel. - Tashkent: Uzbekistan, 1972.)
2. Бухарское городское училище №100 // Текстильщик Бухары, 9 июня 1979 года. (Bukharskoe gorodskoe uchilishche #100 // Tekstilshchik Bukhari, June 9, 1979 god.)
3. Utayeva Feruza Kholmamatovna // Bukhara Yarn and Fabric Factory CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY(ISSN: 2660-6836)., 2022 yil 22 iyun.
4. Utayeva F.X. // Employment of the population in the textile factory. International journal of Philosophical studies and social sciences (ISSN-E: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039) Volume 3, Issue 3. – 2023. – P.53-59.
- 5 Исломлова Г. Ўзбекистонда хотин-қиз ишчи кадрлар тайёрлаш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – Б. 22. (Ismailova G. Training of female workers in Uzbekistan. - Tashkent:Uzbekistan, 1983. - B. 22.)
- 6.Мирзакулов Б. Бухоро тарих зарваракларида. Монография Бухоро: Дурдана, 2018. – 212 б. (Mirzakulov B. Bukhara in the wings of history. Monograph Bukhara: Durdon, 2018. – 212 p)
- 7.Utayeva F. X. Buxoroda to'qimachilik sanoati qurilish tarixining matbuotda yoritilishi. International journal of philosophical studies and social sciences issn-e: 2181-2047, ISSN-P: 2181-2039 http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss Vol 1, Issue 4 2021.
- 8.Махмудов М. Касб меҳри. // Бухоро тўқимачиси; 1979 йил 9 июнь.( Mahmudov M. Professional love. // Bukhara weaver; June 9, 1979.)
9. Наимов Н. Тўқимачилик фидоийлари. // Бухоро ҳақиқати, 1996 йил 27 марта. (Naimov N. Textile devotees. // Bukhara reality, March 27, 1996.)
- 10.Юксак мукофот муборак // Бухоро ҳақиқати, 1986 йил 11 июнь.( Congratulations on the high reward // Bukhara truth, June 11, 1986.)
- 11.Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – Б. 15. (Development of textile industry of Uzbekistan. - Tashkent: Uzbekistan, 1983. - B. 15.)
12. Buxoro viloyat davlat arxivsi, 1362 - fond, 1 - ro'yxat, 137 - yig'ma jild, 137 -varaq. (State archive of Bukhara region, 1362 - fund, 1 - list, 137 - collective volume, 137 - sheet)